

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжонов Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилятхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Nosirova Shoiraxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: shoiranosirova1999@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz kasbiy muloqot xulqining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Muloqotning kommunikativ, interaktiv va perseptiv jihatlarini, kasbiy nutq madaniyati, nolisaniy vositalar va madaniy omillarning ta'siri ko'rib chiqiladi. Turli kasb egalarining muloqot uslublari, madaniy qadriyatlar va pragmatik strategiyalari qiyosiy tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari kasbiy muloqotning madaniy va ijtimoiy mezonlari haqida xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kasbiy muloqot, lingvokulturologiya, nutq madaniyati, madaniy qadriyatlar, pragmatik strategiyalar, nolisaniy vositalar, madaniyatlararo aloqa.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF PROFESSIONAL COMMUNICATIONAL BEHAVIOR IN ENGLISH

Nosirova Shoiraxon Ulugbek kizi

Fergana State University, basic doctoral student

Annotation The article analyzes the linguocultural features of professional communication behavior in English. The communicative, interactive, and perceptual aspects of communication, professional speech culture, non-verbal tools, and the influence of cultural factors are examined. The communication styles, cultural values, and pragmatic strategies of different professions are comparatively studied. The research results help draw conclusions about the cultural and social norms of professional communication.

Keywords: professional communication, linguoculturology, speech culture, cultural values, pragmatic strategies, non-verbal tools, intercultural communication.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i2/n55>

Insonlarni ongli mavjudot sifatidagi ehtiyojlaridan biri muloqot hisoblanib, bu orqali tomonlarning o'zaro axborot almashina olishlari tushuniladi. Aloqa o'rnatish, fikr almashish va so'zlashish jarayonida ishlatiladigan bevosita va bilvosita birliklarning hammasi bir bo'lib muloqotni shakllantiradi. Muloqot kommunikativ, interaktiv va perseptiv o'ziga xosliklarga ega. Muloqot jarayonida ishtirokchilarning o'zaro axborot almashina olishlarini kommunikativ aspekt deb tushunsak, uning nafaqat bilim va g'oyalar bilan, balki harakatlar bilan ham kommunikantlar o'rtasida o'zaro ta'sir etish imkoniyatini uning interaktiv xususiyati va muloqot jarayonida tomonlar bir-birlarini to'g'ri idrok qila olishlarini perseptiv xususiyati deb qaraymiz. U kontakt, aloqa o'rnatish, undovchilik, koordinatsion, hissiy aloqa o'rnatish, munosabat o'rnatishda o'z o'rinlarini anglash va ta'sir o'tkazish kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Adresat va adresantning yoshi, jinsi, millati muloqotga ta'sir qiluvchi ichki birliklar deb qaralsa, muloqotning qachon sodir bo'lganligi va unga mavjud vaziyatning ta'siri hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar tizimi tashqi ta'sir etuvchi birliklarga kiradi. Nolisaniy vositalardan foydalanish ham samarali muloqot shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda noverbal vositalardan foydalanish ma'lum jamiyat a'zolari tomonidan

ishlatilganda tag zamiridagi ma'nosi anglashilib, boshqa guruhlar uchun hech qanday ma'no-mazmun kasb etmasligi mumkin.

Muloqot qilishning muhim masalalarini qamrab olgan nutq madaniyati o'z ilmiy yondashuvlariga dastlab Praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan erishgan. Ular muallifligida XX asrning 20-30-yillarida nashrdan chiqqan ilmiy maqola va tezislarning asosiy mavzusi ham nutq madaniyati haqida bo'lib, bu bosqichma-bosqich keng ilm ahli e'tiborini o'ziga qaratdi. Xususan, M.Berli-Alen, R.Brikman, R.Kershner, V.Birkenbil, Ch.Likson, D.Karnegi, A.Piz, L.Gumilyov kabilarning ishlarini misol sifatida ta'kidlab o'tishimiz mumkin [1; B.7].

Nutqiy muloqot va uning turli aspektdan (sotsiolingvistik, psixolingvistik va pragmatik) o'rganilishiga g'arb mamlakatlarida o'z davrida maxsus chop ettirilgan "Muloqot", "Diskurs va jamiyat", "Madaniy antropologiya", "Pragmatika", "Til va muloqot" kabi jurnallarning ham qo'shgan hissasi arzirlidir. Hozirgi kunda ham Amerika Qo'shma Shtatlarida nutq madaniyati va ritorika masalalarida faoliyat olib borayotgan bir qator ilmiy jamiyatlar va uyushmalar mavjud bo'lib, masalang yanada chuqur tadqiqi muammolari ilmiy izlanishlarning asosiy sarlavhasiga aylanib ulgurdi. Nufuzli Yevropa universiteti professori T.A.Deyk o'zining "Til. Bilish. Muloqot" deb nomlangan asari orqali muloqot jarayoniga ijtimoiy va madaniy omillarning ta'siri masalalarini atroflicha o'rgangan. Zamonaviy lingvistik pragmatika, diskurs tushunchasi va paydo bo'lishi, ommaviy axborot vositalaridagi muloqot jarayonida tildan foydalanish kabi masalalarni sotsiopsixolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etgan.

Turli kasb egalarining muloqot etiketi aksariyat hollarda bir-biridan farq qiladi. Kasbiy muloqot jarayonida muloqot ishtirokchilarining xulq-atvori ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Ushbu omillar orasida til va madaniyat alohida o'rin tutadi. Har bir jamiyatda kasb egalari o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar muloqot ishtirokchilarining lisoniy va nolisoniy xulqida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, turli tillarda kasbiy muloqot xulqini qiyosiy o'rganish muloqotning samaradorligini oshirish va madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarining kasbiy muloqotlarini samarali amalga oshirishlari o'z fikrlarni boshqalarga tushunarli yo'sinda yetkaza olishlari, o'zgalarning fikrini tez va to'g'ri tushuna olishlari, unga munosabat bildirga olishlari hamda munozaraga kirisha olishlarida ko'rinadi. Bu esa o'z navbatida ta'limda shakllantirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalardan biri bo'lgan amerikalik olim D.Xayms tili bilan aytganda kommunikativ kompetensiya mavzusini ochib beradi [2; B.27].

Kasbiy muloqot xulqining shakllanishi masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, J.Holmes va M.Stabbening tadqiqotlarida kasbiy muloqot xulqining shakllari va ularning lingvopragmatik xususiyatlari batafsil tahlil qilingan. J.Holmesning "Kichik bir suhbat ham katta ahamiyatga ega: ish joyidagi sotsiolingvistik qiyinchiliklar" degan ilmiy maqolasida ham qisqa suhbat qurish orqali ham insonlarning milliy-madaniy qarashlari namoyon bo'lish holatlari ham misollar bilan fikr yuritgan [3; B.87]. Ayni shu muallif va N.Riddiford birgalikda 2010-yilda "Ish o'rinlaridagi kasbiy va shaxsiy o'zlik" asarida muloqot qobiliyati va uning ish o'rinlaridagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tishgan. Yangi Zelandiyadagi ko'plab ish beruvchilar immigrant ishchilarga nima sababdan ish taklif qilishdan qochishlarining sababini ham ularning tildan foydalanishdagi sotsiomadaniy aspektlarda ko'plab tushunmovchiliklar yuzaga kelish holatlari ko'p uchrayotganligiga bog'lashadi. Ularning turli madaniy negizlardan kelib chiqqanliklari sababli muloqot uslublaridagi farqlar va ingliz kontekstlaridagi normal tushunchalarni to'g'ri anglay olmaslik holatlari bilan bog'liq

bo'lgan muammolarni o'z ichiga olgan ushbu asarda kundalik ish jarayonlarida kuzatiladigan dialoglarni olib tahlil qilishgan va qimmatli ma'lumotlar bn ulashishgan. J.Holmes shunday deb yozadi: "Hozirgi kundagi olib borilayotgan tadqiqotlarning katta qismi ishga kirishdagi intervyularning va yoki murakkab akademik darajadagi kontekstlarning o'rganilishi borasida amalga oshirilmoqda, ishlab yurish jarayonidagi kundalik muloqot jarayonlariga esa e'tibor sezilarli darajada kam miqdorni tashkil etadi". Viktoriya (Yangi Zellandiya) universiteti xorijiy til o'qituvchisi Niki Riddiford mazkur masalalarga yechim sifatida migrantlar uchun maxsus kurs tashkillaydi va bunda o'z mutaxassisliklariga ega bo'lgan ishchilarga ish joylarida muloqot xulqi, normalari va etiket qoidalari haqida ta'lim beriladi. Bu esa yangi bir tilni shunchaki lingvistik jihatlarini o'rganish emas, balki uning madaniyatini ham qo'shib o'rganish zaruriyatiga yaqqol misol deyishimiz mumkin. M.Stabbening ham asosiy diqqati individuallarning kasbiy faoliyati davomidagi muloqot xulq-atvorlariga bag'ishlangan. "Ish o'rinlaridagi kuch va xushmuomalalik: Ishdagi suhbatning sotsiolingvistik analizi", "Ish joylaridagi muloqotning bir qator diskurs tahlillari", "Muloqotda og'zaki fikr bildirishga madaniyatning ta'sirlari", "Ayollarga xos ish o'rinlari: stereotip va haqiqat" ilmiy asarlari ushbu muallif qadr-qimmatini yanada ulug'laydi. Maria Stabbening XXI asr dastlabki o'n yilligida Vellingtondagi Viktoriya Universiteti qoshida "Men noto'g'ri tushundimmi? Yohud ishdagi muammoli suhbat va kommunikatsiyani boshqarish" [4; B.9] sarlavhasi ostida falsafa doktori darajasini olish uchun yozgan ilmiy ishi juda keng qamrovli bo'lib, sotsiologiya, diskurs nazariyasi masalalari, ish o'rinlaridagi to'g'ri anglashilmagan munosabat, muloqot murakkabliklari, jamoaviy ish muhiti, muloqot jarayonida mojarolarni oldini olish va samarali kasbiy muloqot yuritish masalalari bobida qimmatli ma'lumotlar manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Ilm-fan va tilshunoslik sohasiga katta hissa qo'shgan olimlardan yana biri J.Swales bo'lib, uning "Janr tahlili: Akademik va tadqiqotlar muhitida ingliz tili" [5; B.47] asari akademik va professional yozishmalarni tahlil qilishda, kasbiy va akademik ehtiyojlarga mos keladigan maxsus diskurslarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. U janrni kommunikativ maqsadga ega bo'lgan diskurs shakli sifatida talqin qiladi va janrning shakli, tarkibi va maqsadi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishning ahamiyatini ko'rsatib beradi. U "ESP (English for specific purposes)" "Ma'lum sohalar uchun maxsus ingliz tili" bo'yicha ham taniqli olimlardan hisoblanadi.

Ingliz tilshunoslik olamida ham turli kasb egalarining nutqlariga oid atamalar va so'zlashuv uslublari o'rganilgan va hozirda ham bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Har xil kasbdagi kishilarning nutqi sotsial va jins jihatidan farqlanishlarga egaligi bo'yicha tadqiqotlar so'ngi yillarning dolzarb masalalaridan bo'lib kelmoqda. Mashhur lingvist olim M.Baxtin insonning kasbi uning so'zlashuv uslubi va xulq-atvoriga ham ta'sir o'tkazishi haqida alohida to'xtalib o'tib, "So'zlardan kasblarning hidi kelib turadi" – degan edi. Zero, harbiy soha xodimlarining nutqi asosan erkaklarga xos bo'lgan salobatli, qisqa va lo'ndaligi bilan quruvchilar, savdogarlar, o'qituvchilar va shifokorlar nutqidan keskin farq qiladi. Hattoki so'zlashuvda ishlatiladigan maxsus terminlari, iboralari va kasbga oid jargonlari ham o'z kasbdoshlari doirasida to'g'ri anglanib, boshqa soha vakillariga buning mohiyatini idrok etish qiyinchilik tug'dirishi ham mumkin. Bunga misol sifatida ingliz kontekstlarida ishlatiladigan "Harley street" frazeologik birligini olishimiz mumkin. Londonning Harley ko'chasida ko'plab dong'i chiqqan yetuk doktorlar istiqomat qilganligi uchun "tibbiyot olami", "doktorlar dunyosi" degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, "put on the Ritz" (Ritzni kiyish, Ritzda kiyinish) iborasi

zamonaviy, chiroyli ko'rinishda kiyinish ma'nosini anglatadi. Sababi, Ritz London, Nyu-York va Parijning eng mashhur va qimmat mehmonxonalaridan birining nomi sifatida jamiyat uchun ma'lumdir. "The Black Belt" (Qora kamar) frazeologik birligi esa asosan davlat siyosiy qatlami tomonidan keng foydalanilib, u orqali Amerika Qo'shma Shtatlarining afro-amerikaliklar yashaydigan janubiy qismi tushuniladi. "Baker's dozen" (nonvoyning 12-chisi) iborasini ishlatish orqali esa qadimiy ingliz urf-odatlaridan qolgan o'n ikkita non sotib olgan xaridorga o'n uchinchi nonvoy tomonidan tekinga berilishi holatlari anglashiladi. "Frequent flyer" (tez-tez uchuvchi) iborasi asosan o'qitish sohasida faoliyat olib boradigan nutqida ko'rinib, u orqali maktabning an'anaviy intizom metodlariga javob bermaydigan va undan foyda ko'rmayotgan talaba tushuniladi. "Flying colors" (uchayotgan ranglar) iborasi esa asosan ta'lim sohasida imtihon va joriy nazorat topshiriqlarini muvafaqqiyatli uddalagan holatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Biznes menejmenti sohasida ishlatiladigan "cold piece of work" (ishning sovuq qismi) iborasi asosan u bilan ishlash qiyin bo'lgan ishchi xodimga nisbat berilib, asosan ish beruvchilar o'rtasida faol ishlatiladi va ma'nosi ham o'zaro oson anglashiladi. Reklamalar, afishalar, turli brend nomlari, yangi innovatsiyalar va tijorat mahsulotlarida hozirda ingliz tilida ko'p uchrayotgan "consumer culture" (iste'molchi madaniyati) iborasi ham ishlab chiqarish sanoati va uning ommaviy reklamalarida o'z o'rnini topib bormoqda.

Ingliz kasbiy muloqot xulqi rasmiy va norasmiy shakllarga ega. Rasmiy muloqot ko'proq masofali tabiatga ega bo'lib, norasmiy muloqotda samimiylik, do'stona munosabat yaqqol namoyon bo'ladi. Turli kasb egalari tomonidan nisbatan tenglik asosidagi munosabatlar ko'proq kuzatiladi. Chuqurlashtirilgan, imo-ishoralar bilan boyitilgan muloqot ko'p holatlarda uchraydigan o'zbek tilidan farqli o'laroq, ingliz tilidagi muloqotda aniqlik, ravonlik va shu bilan birga qisqalikka intilish kuzatiladi.

Ingliz tilida norasmiy va samimiy muloqotning ko'p ekanligi mazkur jamiyatda individualistik qadriyatlar ustuvorligidan dalolat beradi. Erkin aloqalar, tenglik asosidagi munosabatlar ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatlar uchun xos bo'lgan xususiyatlar sanaladi.

Muloqot ishtirokchilarining individual xususiyatlari, ularning yoshi, jinsi, ta'lim darajasi kabi omillar ham muloqot xulqining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, muloqot ishtirokchilarining shaxsiy fazilatlar, dunyoqarashi, tafakkur tarzi ham ularning muloqot xulqiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilidagi muloqotda ishtirokchilarning individual fikrlash tarzi, mustaqil qaror qabul qilishi kabi xususiyatlar ko'proq namoyon bo'ladi.

Har qanday kasbiy muloqot jarayonida muloqot ishtirokchilarining maqsad va niyatlari, suhbatdoshga nisbatan munosabatlari ularning xulq-atvorida va tilidan foydalanish usulida o'z aksini topadi. Xulqning nolisoniy ifodasi bo'lmish imo-ishoralar, xatti-harakatlar bilan bir qatorda tilning o'zi ham pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Muloqot ishtirokchilari til birliklaridan o'rinni foydalanish orqali suhbatdoshning ishtiyoqini oshirishi, unda ijobiy taassurot qoldirishi yoki aksincha, salbiy munosabat uyg'otishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, kasbiy muloqotda erishiladigan yutuq faqatgina suhbatdoshlarning kasbiy bilimlari va nutqiy mahoratiga emas, balki ular mansub madaniyat xususiyatlarini hisobga olishga ham bog'liq. Shu nuqtai nazardan, turli tillarda kasbiy muloqot xulqini qiyosiy o'rganish madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil qilish va tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Kasbiy muloqot kompetensiyasi deganda yetishib chiqayotgan kadrlarning ma'lum tanlagan kasblariga oid ilmiy va xususiy bilimlarni egallashga tayyorligi va layoqati tushuniladi.

Bunda nafaqat sohaga oid nazariy bilimlar, balki kasbiy faoliyatlari davomida zaruriy bo'lgan ko'nikma va malakalar, shuningdek muloqot qilish me'zonlarini ham o'zlashtirish demakdir. Kasbiy muloqot xulqi deganda kasb egalari o'z faoliyati davomida muloqot jarayonida rioya qiladigan me'yorlar, qoidalar va odatlar majmuini tushunamiz. Bu o'z navbatida professional muhitning o'ziga xos talablari va kasb etikasi bilan belgilanadi. Har bir soha vakilining o'z kasbiy majburiyatlariga bo'lgan hurmati va javobgarligi, professional munosabatlarda xushmuomalalik va axloqiy tamoyillarga rioya qilishliklari kasb etikasi bo'lib, ochiqlik, o'zaro hurmat va o'ziga xos professional chegaralarga amal qiluvchi ijrochi va mijoz o'rtasidagi munosabat ham o'z o'rnida ahamiyatlidir. Kasbiy jargon, atamalar va tushunchalardan foydalanish orqali muloqot samaradorligini oshirish muloqotdagi ixtisoslashgan tilni, aniq, tushunarli va samimiy bo'lish, bir vaqtning o'zida o'zaro hurmatni saqlay bilish esa muloqotdagi madaniyatni shakllantiradi. Hech bir individual shaxs jamiyatda yakka o'zi istiqomat qilmaganligi sababli u doim ma'lum bir kishilar jamoasi bilan uyg'unlikda hayot kechiradi va uning jamiyatga va jamiyatning esa unga nisbatan ta'siri ko'p jabhalarda seziladi. Ma'lum madaniy o'ziga xosliklar uning nutqi, xulq-atvori orqali namoyon bo'ladi. Turli kasblarga xos bo'lgan muloqot qilish me'yorlari, shakli va mazmuni kasbiy muloqotning o'ziga xos lingvokulturologik xususiyatlarini belgilaydi va bunda til nafaqat axborot uzatish, balki kasb egalari o'rtasida madaniy, ijtimoiy va kasbiy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Har bir kasbda o'ziga xos tushunchalar, kasbiy jargon va terminlar mavjud bo'lib, ular muloqotda samaradorlikni oshiradi. Ular orqali kasbiy bilimlar bilan birgalikda kasbiy madaniyat ham ifodalanadi. Shuningdek, muloqot jarayonida milliy-madaniy qadriyatlar va urf-odatlar ham namoyon bo'ladi. Misol uchun, ko'pincha sharqiy madaniyatlarda hurmat, xushmuomalalik va xushfe'llikka katta e'tibor qaratiladi va bu xususiyatlar kasbiy muloqot jarayonida ham o'z aksini topadi.

Har bir kasbning o'ziga xos muloqot uslubi ham mavjud bo'lib, u madaniy an'analarga mos ravishda rivojlanib boradi. Advokatlar, ichki ishlar va xavfsizlik xizmati organi xodimlarining nutqida asosan rasmiy va qat'iy uslub, ta'lim tizimida faoliyat yuritadiganlar nutqida esa tushunarli va izohlovchi uslublar ustuvorlik qiladi, sotuvchilar nutqida esa asosan undovchi, madh etuvchi, jalb qiluvchi so'zlar ko'p uchraydi. Hissiy bo'yoqdorlikning yaqqol ifodalari esa ijodkorlar nutqida aks etadi.

Turli kasb egalarining muloqotida madaniy va ijtimoiy mezonlar kasbning turiga, vazifasiga hamda muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi va madaniy kontekstiga qarab farqlanadi. Bu mezonlar nutqiy odob, muloqot uslubi, so'z tanlash va kommunikativ strategiyalarni o'z ichiga oladi. Kasbiy muloqot xulqi haqida so'z ketar ekan, avvalo o'qituvchi-pedagog xodimlar nutqini hayolga keltirishimiz tabiiydir. Sababi qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, har bir yetishib chiqayotgan kadr yillar davomida pedagoglar ta'lim-tarbiyasini boshdan o'tkazadi va shuning uchun ham ularning kasbiy faoliyatlaridagi muloqot xulqini o'ziga xos xususiyatlarini yoritish katta qiziqishga sabab bo'la oladi. O'qituvchilar muloqot xulqi xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, o'quvchilarning qabul qilishlariga, idrok qilishlariga, shu yo'sinda o'zlashtirish sifatiga katta ta'sir o'tkazadi. Bu nafaqat o'quvchilarning akademik o'zlashtirishlariga, balki butun sinfning psixologik holatiga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. M.Kalubag "O'qituvchi muloqot xulqi" [6; B.47] nomli asarining asosiy qismi bo'lgan 8-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqotining natijalari bilan bo'lishadi. Unda o'qituvchilar 2013-2014-o'quv yillari davomida 5 ta punkt (fikrlash, turtki berish va maqtash, noverbal qo'llab-

quvvatlash, do'stona muhit yaratish va nazorat qila bilish) bo'yicha nazorat qilinadi va bosqichma-bosqich baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning fanni qanchalik sifatli va muvafaqqiyatli o'zlashtira olishlari avvalo o'qituvchilarning fan doirasidagi salohiyatiga va eng muhimi uning nutqida ishlatilayotgan so'zlarga, uslubiga, tana harakatlariga, o'qituvchi-talaba o'rtasidagi do'stona munosabatlarga ham chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan sotsio-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi davrida ko'plab kompaniyalar va tashkilotlarning muvafaqqiyatli faoliyati ham qo'l ostidagi ishchi xodimlarning qadriyatlarini hurmat qiladigan, o'zaro munosabat va muloqot me'yorlariga amal qiladigan muhitning yaratilganligiga ko'p holatlarda bog'liq ekanligi ham aslo bejiz emasdir. Statistik ma'lumotlar bilan aytganda, biznesda, menejerlikda muvafaqqiyatning 85% qismi ularning muloqot mahoratlari hisobiga keladi. Shu sababdan ham biznesdagi eng zo'r mutaxassislar nafaqat xorijiy tillarni bilish qobiliyatiga, balki notiqlik san'atiga ham katta qiziqish ko'rsatishmoqda. Biznes muloqot tashkilotdan tashqi muhitdagi shaxslar, ya'ni hamkorlar, xaridorlar va raqobatchilar bilan bo'lgan munosabatlarda va tashkilotning ichki xodimlararo bo'lgan muloqotida namoyon bo'ladi. Professional terminologiyadan foydalanish, kommunikatsiya uslublari va madaniy qadriyatlari uning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib beradi. Hozirgi kunda Antoni Lakinai va uning jamoasi ma'lum biznes egalari, korxona va tashkilot boshqaruvchilariga maxsus muloqot mahorati darslarini, treyning kurslarini olib borishayotganligi ham muloqotning ta'sir kuchini dolzarbligini ko'rsatadi.

Doktorlarning muloqot qilish jarayonidagi xulq-atvorlari va belgilangan ijtimoiy me'yorlarga amal qilishlari ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifatiga, bemorlarning ishonchi va davolash jarayonining yanada samaradorli bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Har qanday millat, madaniyat, jins, yosh yoki diniy qarashlar asosida kamsitmagan holda har bir bemorni individual shaxs sifatida uning qadr-qimmatini hurmat qilish, muloqotda bemorlarning hissiyotlarini tushungan holda ularga samimiy yordam berish, bemorlarning holatlarini yanada og'irlashtirib yubormaslik uchun tinchlantiruvchi yumshoq ohangda gapirish va vaziyat haqida halol, ochiq yondashgan holda to'g'ri va tushunarli tavsiyalar bera olishlari ahamiyatli hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, tibbiy terminlar foydalanilgan holda bemorning vaziyatiga to'g'ri tashxis qo'yib, uni tushunarli sodda til bilan bemorga yetkaza olishlari va shifo istab kelganlarni ijobiy tomonga yo'nalishlari haqida undashlari ularning so'zlashuv uslublari va xulq-atvorlarida namoyon bo'lib, katta ta'sir kuchiga ega. M.A.Stuard o'zining "Samarali doktor-bemor munosabatlari va salomatlikka ta'sirlari" [7; B.27] asarida o'tgan yillar davomida omma tomonidan unchalik katta e'tibor tortmagan tibbiy soha vakillari muloqot qilish mezonlari asrimizning boshlaridan beri ham asosiy mavzulardan biri sifatida mutaxassislar tomonidan ko'plab o'rganilganligi va arzirli mavzu sifatida qaralayotganligini aytib o'tgan. U o'tkazilgan tadqiqoti haqida gapirar ekan, o'rtacha 18 sekund vaqt bemorning o'z shikoyati haqida gapirib berishiga sarflanganligi hamda doktorlar va bemorlar o'rtasida o'zaro erkin, samimiy, ochiq munosabat o'rnatilmaganli sababidan 54% holatda bemorning joriy holati, kasalligi haqidagi fikrlari, shikoyatlari to'liq eshitilmaganligi ham mazkur soha xodimlarining muloqot qilish qobiliyatlarining ahamiyatiga urg'u berib o'tadi. Yaxshi muloqot bemorning hissiy sog'ligiga o'z ta'sirini o'tkazib, tayinlangan davo choralarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. W.Beyle, R.Bakman, R.Lenzi va bir qator olimlar tomonidan yozilgan asarda ham shunday

deyilgan: “Bemor o'z shifokorini o'zining psixologik yordamchisi sifatida ko'radi” [8; B.65]. Bu nafaqat tibbiy davo-choralarini ko'rishda, balki insonlarga psixologik yordam bera olishlarida ham bu kasb egalarining mas'uliyatini ko'rsatadi.

Ingliz madaniyatida yana bir o'ziga xos muloqot shakliga ega bo'lgan jamiyat vakillari organ xodimlaridir. Ichki ishlar, bojxona, mudofaa va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining fuqarolar bilan muloqotda ishlatadigan til vositalari, nutq strategiyalari va muloqot usullari ijtimoiy, madaniy va huquqiy kontekst bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular odatda rasmiy uslubdan foydalanishadi. Buyruq shakllarining ham yumshoqroq ko'rinishlari fuqarolarni hurmat qilgan holda ishlatiladi. Agar tajovuzkor tilda gapirilsa, ishni yanada chigallashtirib qarshilik ortishi mumkin, muloyim va tushuntiruvchi nutq esa hamkorlikka olib keladi. Shunday ekan, tinchlantiruvchi, tushunarli va xolis nutq konfliktlarni oldini olishga, huquqni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirishga, ushbu kasb vakillari va jamoatchilik o'rtasida ishonch tuyg'ularini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Ingliz tilida mashhur soha vakillarining nutqini lingvistik tadqiq etgan olimlardan biri A.Trosborg bo'lib, u “Til ichki pragmatikasi”, “Huquq tilida ritorik strategiyalar” asarlari orqali harbiy soha vakillarining muloyimlik strategiyalari va buyruq tilining lingvistik tahlillarini olib borgan.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi kasbiy muloqot xulqining lingvokulturologik xususiyatlari madaniy, ijtimoiy va pragmatik omillarning murakkab o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Muloqotning kommunikativ va perseptiv jihatlarini, nolisoniy vositalar va kasbiy etika me'yorlari kasb egalarining nutq uslubi va xulq-atvorini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz madaniyatida rasmiy va norasmiy muloqot shakllari, individualizm va tenglik qadriyatlari ustuvor bo'lib, bu o'zbek madaniyatidagi hurmat va samimiylikka asoslangan uslublardan farqlanadi. Kelgusida kasbiy muloqotni madaniyatlararo qiyosiy tahlil qilish orqali global ta'lim va amaliyotni takomillashtirish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. – Farg'ona: FarDU nashriyoti, 2021. – 150 b.
2. Asilova G. Til ta'limida kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish // O'zbekiston: til va madaniyat. – 2023. – № 4 (2). – B. 30-41.
3. Holmes J. When small talk is a big deal: Sociolinguistic challenges in the workplace // Second Language Needs Analysis / Ed. by M.H. Long. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – P. 344-372.
4. Stubbe M. "Was that my misunderstanding?": Managing miscommunication and problematic talk at work. – Wellington: Victoria University of Wellington, 2010. – 256 p.
5. Swales J.M. Genre analysis: English in academic and research settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
6. Calubag M.C., Dinorog R.J., Esporsado J.E., Jumawan R.A., Maglinao L.L., Manon-og A.M.R. Teachers' communication behavior: its relationship to science 8 students' proficiency level // Journal of Education Research. – 2020. – Vol. 198, No. 2. – P. 1-30.
7. Stewart M.A. Effective physician-patient communication and health outcomes: A review // Canadian Medical Association Journal. – 1995. – Vol. 152, No. 9. – P. 1423-1433.
8. Baile W.F., Buckman R., Lenzi R., Glober G., Beale E.A., Kudelka A.P. SPIKES - a six-step protocol for delivering bad news: application to the patient with cancer // Oncologist. – 2000. – Vol. 5, No. 4. – P. 302-311.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.